

**GOSPITAL TA'LIMDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH**

Alimova Nigora Israilovna

*Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi huzuridagi
“Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasasi direktori*

Sag'dullayev Quvonchbek Akmal o'g'li

*Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi huzuridagi
“Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasasi
umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim*

Sattorov Rustam O'roq o'g'li

*Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi huzuridagi
“Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasasi
umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim*

Annotatsiya. Ushbu maqolada gospital muktablarda geografiya fanini o'qitishda zamonaliviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yordamida o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishning o'ziga xos jihatlari haqida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, gospital ta'lim, internet, televizor, video, telefon, kompyuter, Microsoft Word, Excel, Power Point, multimedia, “Google Earth” dasturi, “iSpring” dasturi

Bugungi kunda mamlakatimizning ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday keng ko'lamli islohotlardan biri 2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy

o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridir. Qarorga muvofiq bugun yurtimizda “Mehrli mакtab” davlat ta’lim muassasasi tashkil etilib, o‘z faoliyatini olib bormoqda.

“Mehrli mакtab” davlat ta’lim muassasasini tashkil etishdan asosiy maqsad tibbiyat muassasalarida gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarning hayotga ijtimoiy moslashuvini, ularning maktabgacha ta’lim hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ta’limni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash hisoblanadi.

Gospital pedagogika bu – pedagogikaning uzoq muddat davolanayotgan va sog‘lig‘iga ko‘ra ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida ishtirok eta olmaydigan bolalarni o‘qitishni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘limi. Gospital pedagogika pedagogikaning bir qismi bo‘lgan holda o‘z e’tiborini ta’lim oluvchilarning alohida toifasiga – uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalarga yo‘naltiradi. Chunki statsionar sharoitda davolanayotgan o‘quvchi – bu birinchi navbatda bemor, undan keyingina u o‘quvchidir. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish kompleks reabilitatsiyadan iborat. Gospital pedagogikaning maqsadi asosiy va qo‘srimcha umumta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim faoliyatini amalga oshiradigan, tibbiyat tashkilotida uzoq muddatda davolanishga ehtiyoji bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan – gospital maktablarni tashkil etishdir. Gospital maktablariga quyidagilar kiradi:

- o‘z faoliyatini tibbiyat tashkiloti negizida amalga oshiradigan ta’lim tashkilotlari;
- asosiy va qo‘srimcha umumta’lim dasturlarini o‘zlashtirgan va uzoq muddatli davolanishga ehtiyoj bo‘lgan ta’lim tashkilotlari;
- tibbiyat tashkilotining ixtisoslashtirilgan tarkibiy ta’lim bo‘linmalari Gospital maktablarda uzoq muddat davolanayotgan bolalarga ta’lim berish faoliyatini uzoq davolanayotgan bolalar bilan ishslash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagogik ta’limi bo‘lgan gospital pedagog-mutaxassis amalga oshiradi.

Gospital ta’lim maktablarida geografiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirish orqali bilimlarini amalda qo‘llay olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Geografiya haqidagi bilimlar o‘quvchilarga hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Geografiya fanida o‘quvchilar tirik organizmlar, tabiat hodisalari, tabiiy geografik jarayonlar haqida juda ko‘p qiziqarli bilimlarga ega bo‘ladilar. Inson va tabiat o‘rtasidagi ajralmas bog‘liqlik mavjudligini, tabiatdagi bir komponentning o‘zgarishi, albatta, boshqa tarkibiy qismlarning o‘zgarishiga olib kelishini tushunib oladilar.

Dunyo miqyosida ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish, ularning didaktik asoslarini o‘rganib yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasi takomillashib bormoqda. Bu ta’lim tizimida pedagoglar, jumladan, geografiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarligini oshirish, o‘quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyati tobora kengayib bormoqda. O‘quvchilarga geografiya fanini o‘rgatishda axborot ta’lim resurslaridan foydalanish iqtidorli o‘quvchilarning intellektual salohiyatini o‘sirish bilan bir qatorda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi hamda fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.


Geografiya fani o‘qituvchisi fanga oid multimediali elektron dasturlardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini ya’ni, geografiya faniga oid axborot manbalaridan (internet, televizor, radio, audio va video, telefon, kompyuter, va boshq.) foydalana olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Geografiya fani o‘qituvchisi har bir mavzuni zamonaviy kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib, dars mashg’uloti jarayonida esa o‘tilayotgan mavzuga oid elektron dars ishlanmasidan, elektron o‘quv filmidan yoki videofilmdan, didaktik materiallardan foydalanish samaradorlikning oshishiga olib keladi. Geografiyanı o‘qitishda multimedia texnologiyalari asosida intellektual o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilarda tezkorlik, ijodiy ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Geografiya darslarida ma’ruzalar va tushuntirishlar orqali ko‘p narsaga erishib bo‘lmaydi. Har bir geografiya o‘qituvchisining o‘z darslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni avvalo Microsoft Word, Excel, Power Point dasturlaridan boshlashi zarur. Word dasturida o‘qituvchi kundalik dars rejasi va darsga taalluqli bo‘lgan yozuv ishlarini bajarsa bo‘ladi. Excel dasturi ayniqsa, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darslaridagi jadval, chizma va diagrammalarni tayyorlashda ko‘p qulayliklarga ega. Power Point dasturida darsning barcha bosqichlari uchun taqdimot tayyorlab ketma-ketlikda matn, rasm va videoroliklarni namoyish etish mumkin.

O‘qituvchi darsga puxta tayyorgalik ko‘rishi uchun www.ziyonet.uz, www.geografiya.uz, www.geostudy.uz kabi internet resurslarining o‘rnini katta. Bu saytlar orqali maktab geografiya ta’limining barcha mavzulariga mos qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni topish mumkin. Shuningdek, google.com qidiruv tarmog’idan foydalangan holda foto va videomanbalarda foydalanish yaxshi samara beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlash o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kelajak avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, tadbirkorlik iqtidori, ijodkorligi, erkin rivojlanishiga yo‘l ochadigan pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishda ko‘plab qulayliklar mavjud. Geografiya darslarini yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan quydagi multimedia ilovalaridan foydalanish mumkin. “Google Earth” dasturi geografiya fani uchun juda ahamiyatli dastur hisoblanadi. Umumiyligi o‘rtacha ta’limdagi geografiya darslarining deyarli barcha mavzularda xaritalardan foydalaniladi va unda Yer yuzasini va uning barcha qismlarini tasvirlab berish imkoniyatining mavjudligidir. Bu dasturda sun’iy yo‘ldosh orqali olingan butun Yer yuzasining fotosuratlardan iborat tasvirlari joylashtirilgan. Ushbu dastur Yer sharining aynan ko‘rinishini, bo‘rttirma va 3D o‘lchamli ko‘rinishda tasvirlaydi.

“Google Earth” dasturidan foydalanish o‘quvchilarda yetarlicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy yordam beradi. Umuman olganda dasturdan geografiya ta’limidagi deyarli barcha mavzularda foydalanish mumkin. Dasturdan foydalanuvchilar uchun juda ko‘p qo‘srimcha ma’lumotlar mavjud. Masalan, mamlakatlar, chegaralari, aholi punktlari, daryolar, ko‘llar, suv omborlari, aeroportlar, avtomobil va temir yo’llar kabi ma’lumotlar joylashgan. Bundan tashqari, ko‘plab shaharlar uchun bat afsilroq ma’lumotlar zarur bo‘lsa ulardagи ko‘cha nomlari, do‘konlar, yoqilg‘i quyish stansiyalari, mehmonxonalar mavjud. Dasturda mamlakatlar va shaharlardagi diqqatga sazovor joylarning 3D binolar platformasi joylashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. “Google Earth” dasturi

“Google Earth” dasturining qo‘srimcha imkoniyatlari sifatida quydagilarni aytib o‘tish mumkin:

- “Google Earth” foydalanuvchi uchun zarur bo‘lgan tasvirlar va xaritalarni saqlab qolish hamda chop etish imkoniyati;

- videotur va ularni saqlab qolish imkoniyati; - bosib o'tgan yo'lning chiziqli ko'rinishda namoyish etilishi, ularda belgilari va masofalarni o'lchash imkoniyati;
- biror hududning eski va yangi tasvirlarining mavjudligi (bu landshaftlar ko'rinishini tahlil qilish imkoniyati);
- parvoz simulyatorining mavjudligi;
- dengiz va okean tubining uch o'lchamli xaritasini ko'rish imkoniyatini taqdim etishi; - geosana platformasining mavjudligi;
- Yer landshaftlarini asl holida ko'rish imkoniyati. “

Geografiya darslarida “iSpring” dasturidan foydalanish bilimlarni tekshirish va uni mustahkamlashda ham zarur dasturlardan biri hisoblanadi. Dasturda 3D kitob yaratish dasturi o‘quvchilarda fan mavzularini o‘zlashtirishda qo‘sishimcha ma’lumotlar bilan tanishtirish, rasmlar va slayd orqali tasavvur va ko‘nikmalar hosil bo‘lishida imkoniyat yaratadi. Ushbu dastur o‘qituvchiga mavzuni tushuntirish jarayonini bir necha marta yengillashtiradi. Bilimlarni tekshirish o‘qitish jarayonining muhim va majburiy qismi hisoblanadi. Uning maxsus vazifasi barcha o‘quvchilarning o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, tafakkurlari o‘sishi, amaliy ko‘nikmalarni, mustaqil bilim olishlarini aniqlashdir (2-rasm).

<p>Вопрос 3 из 10 • Баллы за вопрос: 10 Набраны баллы: 10 из 100</p> <p>Rasm, termin va tushunchalarning bir-biriga mosini toping?</p> <div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; margin-bottom: 10px;">  <input type="radio"/> Amerikaning mongoloid irqladagi xalqlar </div> <div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; margin-bottom: 10px;">  <input checked="" type="radio"/> Afrikadagi eng ko‘p davlatni aniqlang? </div> <div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; margin-bottom: 10px;">  <input type="radio"/> Kekslari eng ko‘p region </div> <div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; margin-bottom: 10px;">  <input type="radio"/> Hindular va Eskimoslar </div> <div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; margin-bottom: 10px;">  <input type="radio"/> Yevropoid </div> <div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; margin-bottom: 10px;">  <input type="radio"/> Yevropa </div> <p style="text-align: right;">Отправить</p>	<p>Вопрос 6 из 10 • Баллы за вопрос: 10 Набраны баллы: 10 из 100</p> <p>Afrikadagi aholisi eng ko‘p davlatni aniqlang?</p>  <p style="text-align: right;">Отправить</p>
<p>Вопрос 7 из 10 • Баллы за вопрос: 10 Набраны баллы: 20 из 100</p> <p>Afrikaning Niger davlatida yoshlar salmogi necha % ga teng?</p> <p><input type="radio"/> 52 % <input type="radio"/> 48 % <input type="radio"/> 50 % <input type="radio"/> 54 %</p> <p style="text-align: right;">Отправить</p>	<p>Вопрос 9 из 10 • Баллы за вопрос: 10 Набраны баллы: 40 из 100</p> <p>Yevrosiyoda yashovchi irqlar qaysilar?</p> <p><input type="checkbox"/> Yevropoid <input checked="" type="checkbox"/> Australoid <input checked="" type="checkbox"/> Negroid <input type="checkbox"/> Mongoloid</p> <p style="text-align: right;">Отправить</p>

2-rasm. “iSpring” dasturida tayyorlangan test savollari

Kompyuterni qisman biladigan fan o‘qituvchisi ham “iSpring” dasturi uchun testlar tuzib, ulardan darslarda foydalanishi mumkin. Kompyuter tarmoqlari mavjud bo‘lsa, test natijalari markazlashtirilgan holda yig‘ilib, topshiriq natijalari o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchiga jo‘natiladi. O‘qituvchi ularni o‘ziga qulay paytda baholashi va analiz qilishi mumkin. Bunday holatda improvizatsion – texnologik metodni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali test topshiriqlarini grammatik jihatdan baholash mumkin. Bu test topshiriqlari o‘quvchilarni to‘g‘ri javob topishi uchun mantiqiy fikrlashiga yoki to‘g‘ri javob topish uchun intellektual jihatidan o‘ylanishiga majbur qiladi. O‘quvchi “iSpring” test savollariga ixtiyoriy javob beradi. Buning uchun o‘quvchi birinchi navbatda savollar bilan tanishib, diqqatini jamlab, undan keyin sodda (oddiy) topshiriqlarni tanlab, to‘g‘ri javoblarni belgilaydi. O‘quvchi savollarni varaqlay olmaydi. Savollar qat’iy ketma-ketlikda keladi. Har bir test savoli uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugagandan so‘ng, dastur navbatdagi topshiriqqa o‘tadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda har bir geografiya o‘qituvchisi darsni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda amalga oshirsa darslarda yuqori samaradorlikka erishadi. Geografiya darslarini tashkil etish va uni o‘tkazishda uchraydigan ba’zi tashkiliy hamda metodik muammolarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yechishi mumkin.

Ma’lumki, shaxs manbani o‘qiganda – 10%, eshitganda – 20%, jarayonni ko‘rganda – 50%, hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlab qoladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, geografiya ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar olgan bilimlarni uzoq vaqt saqlab qolish, hayotiy ehtiyojlarda foydalanish mumkin bo‘ladi va ta’limda sifat darajasining o‘sishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi multimedia ilovalari bilan ishslash jarayonida o‘quvchilarda mustaqil fikrashi takomillashadi. O‘z fikrini erkin bayon eta oladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishslash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022-yildagi 234-son qarori.
2. Ф.Хамроева. Табиий географик фанларни ўқитишида таълим порталларининг аҳамияти. Проблемы и перспективы комплексных географических исследований в Аральском регионе и сопредельных территориях. Материалы Международной научно-практической конференции. – Нукус, 2018.
3. Ф.Хамроева., Д.Х.Усмонова. Географияда мультимедиа технологиилари асосидаги интерактив ўйинлардан фойдаланиш. Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalari va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 2022
4. Abdullayev M. Geografiyani o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T.; 2023.
5. Abdig‘aniyev O. Geografiya dasrlarida texnika vositalaridan foydalanish. – T.; O‘qituvchi, 1995.

6. Vahobov H, Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. – T.; 2021.
7. Shadiyeva N. Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi. Buxoro, 2022.
8. Internet ma’lumotlari.